



**ZARPECHAK (*CUSCUTA EPITHYMUM L*) O'SIMLIK URUG'LARINING
DORIVOR XUSUSIYATLARI.**

Dotsent Hamroyev Elmurod Ortiqnazarovich

Qarshi davlat texnika universiteti

elmurod.khamroyev@mail.ru

Choriyeva Farida Mahmadiyorovna

Qarshi davlat texnika universiteti BT-214-24 guruh talabasi

Ibratchoriyev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada parazit o'simliklar orasida keng tarqalgan *Cuscuta epithymum* haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning morfologik xususiyatlari, urug'ining tarqalish mexanizmlari, ekologik ahamiyati hamda xalq tabobatida qo'llanilishi yoritilgan. Shuningdek, mazkur o'simlik bilan shug'ullangan olimlarning ilmiy tadqiqotlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Zarpechak, parazit, fotosintez, ananaviy, morfologik, *Cuscuta epithymum*, dorivor o'simlik.

Kirish

Parazit o'simliklar orasida *Cuscuta* turi juda muhim ahamiyat kasb etadi. *Cuscuta epithymum*, xalq orasida quyqichoq, zarpichak nomi bilan tanilgan, ipdek ingichka poyali, barglari reduktsiyaga uchragan, fotosintez qila olmaydigan o'simlikdir. *Cuscuta* turlarining soni 200 yuzdan ortiq. U boshqa o'simliklarga maxsus so'rg'ichlari orqali yopishib, ulardan oziqlanadi.



Asosiy qism

Morfologik xususiyatlari: *Cuscuta epithymum* ingichka, ipga o'xshash qizg'ish-sarg'ish poyaga ega. Uning barglari deyarli ko'rinmaydi. Gullari juda mayda, oq yoki pushti rangda bo'ladi. O'simlik o'zini mustaqil oziqlantira olmaydi, balki mezbon o'simlikka yopishib parazitlik qiladi.

Urug'ining biologiyasi: *Cuscuta epithymum* urug'i juda mayda, jigarrang yoki sarg'ish tusda bo'lib, diametri 1–1,5 mm atrofida. Qattiq urug' qobig'i tufayli ular tuproqda 5–10 yilgacha saqlanib qolishi mumkin. Urug' unib chiqqach, 4–5 kun ichida o'ziga mezbon topa olmasa, nihol nobud bo'ladi. Bu urug'ning yashash strategiyasi – uzoq muddat tuproqda saqlanib, qulay sharoitda tez parazitlikka o'tishdir.

Urug'ining tabobatda qo'llanilishi: Xalq tabobatida *Cuscuta epithymum* urug'i turli kasalliklarda ishlatilgan. Uning damlamasi jigar va buyrak faoliyatini yaxshilashda, asab tizimini tinchlantirishda, uyqusizlik va charchoqda foydalangan. Sharq tabobatida urug' reproduktiv salomatlikni yaxshilash, jinsiy quvvatni oshirishda qo'llanilgan. Bundan tashqari, ayrim manbalarda ko'z salomatligini mustahkamlash va organizmni quvvatlantirishda foydali ekanligi ta'kidlanadi. Ilmiy tadqiqotlarda urug' tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar va yog' kislotalari aniqlangan.



Urugini yig'ib olish uchun urug'lar pishgandan keyin butun o'simliklar kesiladi va quritiladi.

Ekologik ahamiyati: *Cuscuta epithymum* ekinlar uchun zararli hisoblanadi, chunki u ularning oziqlanishiga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa beda, yonca, g'alla kabi ekinlarga katta zarar yetkazishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar: Parazit o'simliklar ichida *Cuscuta epithymum* ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlarda uning biologiyasi, parazitlik mexanizmi, kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari keng tahlil qilingan. Olimlar uning urug'lari tarkibida flavonoidlar, alkaloidlar va yog' kislotalari borligini aniqlashgan. Ananaviy Xitoy tabobati Tu Si Zining jigar taloq va buyraklarga ijobiy ta'sirini tasiflaydi.

Xulosa

Cuscuta epithymum - parazit o'simlik sifatida qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar keltirishi bilan birga, xalq tabobatida muhim dorivor o'simlik hisoblanadi. Uning urug'lari ko'p yillar davomida tuproqda saqlanib, qulay sharoitda tezda tarqalish xususiyatiga ega. Shu boisdan, u bilan kurashish va ilmiy o'rganish katta ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Х. (2018). Ўсимликлар систематикаси. Тошкент: Университет нашриёти.
2. Qodirov A., & Karimov, S. (2020). O‘zbekiston florasi va parazit o‘simliklar. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Sharma P., & Kumar, R. (2017). Phytochemical and medicinal properties of Cuscuta species. Journal of Ethnopharmacology, 203, 123–130.
4. Khan M. A., et al. (2016). Medicinal uses of dodder (Cuscuta spp.): A review. Bangladesh Journal of Botany, 45(2), 321–330.
5. Zohary D. (1987). Parasitic Plants of the Middle East. Cambridge University Press.